

## KSENOFOBIYANING SIYOSIY VA ETNIK TIPOLOGIYASI

Nosirova A.R. -

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik  
akademiyasi dotsenti tarix  
fanlari doktori (PhD)*

Ksenofobiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati ilmiy tadqiqotlarda nisbatan kechroq shakllangan yo'nalish hisoblanadi. Ilk davrda u asosan psixologik omil sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy ilmiy yondashuvlar uning ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liqligini tadqiq etuvchi izlanishlar olib borila boshlandi.

Hozirgi davr tadqiqotlarida ksenofobiyaning sabablarini tahlil qilishda keng metodologik imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, ular ijtimoiy reallikni biologik va individual-psixologik omillardan nisbatan mustaqil tizim sifatida qarab, uning o'ziga xos qonuniyatlari mavjudligini asoslaydi. Ikkinchidan, jamiyat inson ongi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanishida hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan ksenofobiya faqat shaxsiy qo'rquv yoki irrasional hissiyot emas, balki muayyan ijtimoiy muhit, institutlar va mafkuraviy ta'sirlar natijasi sifatida talqin qilinadi.

Ksenofobiyaning siyosiy, institutsional va etnik tipologiyasini tadqiq etishda tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik va institutsional yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali ksenofobiyaning turli shakllari, ularning kelib chiqish omillari va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini Sotsiologiya, siyosatshunoslik, dinshunoslik va etnologiya sohalarida ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Xususan, P. Berger, T. Lukman, P. Burde, F. Bart, V.A. Tishkov, V.S. Malaxov, Yu.V. Arutyunyan, L.M. Drobijeva, M. Uoltser va K. Tsyurxerning ijtimoiy identiklik, etnik munosabatlar va bag'rikenglikka oid kontsepsiyalari ksenofobiya tipologiyasini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, B. Bobojonov, M. Bekmurodov, S. Otamuratov, N. Jo'raev va boshqa mahalliy olimlarning millatlararo totuvlik va bag'rikenglikka oid ilmiy qarashlari O'zbekiston tajribasini baholashda qo'llanildi.

Tadqiqotchi olim Karl Shmidt o'zining mashhur asari "Siyosiy tushuncha"da "har qanday qarshilik – diniy, axloqiy, iqtisodiy yoki irqiy – do'stlar va dushmanlar guruhlariga samarali ajratish uchun etarlicha kuchli bo'lsa, siyosiy qarama-qarshilikka aylanadi" [1,35-67]. Shunday qilib, u "biz" va "ular"ga bo'linish insoniyatga xos ekaniga va bu bo'linish qaerda boshlansa, siyosat shu erda paydo bo'lishini ta'kidlaydi.

V. Fridman ksenofobiyaning ijtimoiy sabablarini qayd etib, "Ksenofobiya va milliy nafratning boshqa ko'rinishlari (hatto "siyosiy" millatchilik darajasigacha) paydo bo'lishiga olib keluvchi omillar va mexanizmlar biologik emas, balki ijtimoiy tabiatga ega degan fikrini bildiradi. Zamonaviy kapitalistik jamiyat shunday tuzilganki, uning faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlar odamlar ongida barcha odamlar tengligi haqidagi asosiy haqiqatni muntazam ravishda ta'kidlab keladi" [2].

V. Fridmanga ko'ra, "veymar sindromi" mavjudligini e'tirof etib, ma'lum sabablarga ko'ra davlatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi pasayib borishi natijasida o'rta sinf kambag'allashib, ularning ijtimoiy mavqei yomonlashishiga, bu esa o'z navbatida ularning ksenofobik kayfiyatlarga nisbatan juda sezgir bo'lib qolishi ehtimoli yuqoriligini ta'kidlaydi.

Siyosiy diskursda maqsad tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyat shubhasiz har qanday siyosiy kuch (partiya yoki shaxs) uchun hal qiluvchi hisoblanadi, chunki aynan maqsadga muvofiq butun mafkuraviy tizim quriladi. Odatda muayyan siyosiy tashkilotlar yoki shaxslar tomonidan ilgari suriladigan siyosiy mafkuralarning maqsadi bitta – hokimiyat hisoblanadi, biroq, o'sha maqsadga erishish yo'lidagi vazifalar va usullar odatda turlicha bo'lib, bu siyosiy diskursda, ya'ni siyosiy chiqishlar va fikrlarda aks etadi. Ushbu tafovutlar, asosan, mafkuralar o'rtasidagi

farqlar bilan belgilanadi. Ya'ni ba'zi siyosatchilar hokimiyatga erishish uchun aholini "o'zimiz" va "begona"ga ajratib, migrantlarni jamiyat muammolarining asosiy sababchisi sifatida ko'rsatadilar.

Xavf tuyg'usining kuchayishi odamning xavfsiz ijtimoiy makonini deyarli oilaviy o'lehamlarga qadar sezilarli darajada qisqartiradi. Odamlar o'zlarini qancha xavfsiz his qilsalar, atrofdagi dunyoda shuncha kam begona va xavfli guruhlarini ko'rishadi. Ksenofobiya bilan bog'liq eng keng tarqalgan uchta qo'rquv quyidagilardan iborat:

1) mojarolar, hududiy bosqinlar, urushlar yoki zulm oqibatida guruhning jismoniy yoki moddiy farovonligini yo'qotish qo'rquvi;

2) o'rnatilgan qadriyat, tartib, standart, an'ana, e'tiqod va qarashlarning vayron bo'lishidan qo'rqish;

3) guruhlararo tashvish va o'rnatilgan shakllangan salbiy tasavvurlar tufayli shaxs yoki guruh uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar va kutilayotgan natijalardan qo'rqish [3,227-228].

Ksenofobiya bo'yicha mutaxassis olimlar olib borgan tadqiqotlar, o'spirinlar va yoshlar orasida ksenofobiya namoyon bo'lishiga hissa qo'shadigan va bunga to'sqinlik qiladigan omillarni aniqlashga qaratilgan. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– shaxsning genetik, jismoniy va psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq individual omillar;

– shaxsning bevosita atrof-muhit (oila, maktab va boshqalar) bilan o'zaro ta'siri xususiyatlari, o'zini-o'zi tartibga solish qobiliyati hamda jamiyat qadriyatlari va me'yorlariga munosabatini belgilovchi pedagogik va psixologik omillar;

– shaxs yashayotgan jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va boshqa sharoitlari bilan bog'liq omillar [4, 97-109].

Nazariy va empirik ma'lumotlarni tahlil qilish bizga ksenofobiyaning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi:

1. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarining qadimiy shakli;

2. "Biz" va "ular"ga bo'linish;

3. Irqiy, tabaqaviy, etnik, diniy va boshqa xususiyatlarga ko'ra ajratilgan shaxslar va ijtimoiy guruhlariga qarshi qaratilgan;

4. O'z guruhini boshqalardan ustun ko'rish, bu "ijtimoiy mansublik" tushunchasi bilan bog'liq.

Garchi millatchilik va ksenofobiya ko'pincha o'xshash tushunchalar deb qaralsa-da, ular o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Millatchilar, agar ularning ijtimoiy guruhining eksklyuzivligi tan olinsa, boshqa etnik guruhlariga yoki dinlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin, ksenofobik qarashga ega odamlarda esa, negativizm ustunlik qiladi.

Axborotlashgan jamiyatida ksenofobiya qurolli mojarolarni keltirib chiqarishga qodir mafkuraviy qurolga aylanishi mumkin. U insoniyatning davlatlar, millatlar, etnik guruhlar, irq, diniy konfessiyalar va madaniyatlarga bo'lingan mavjud bo'linishidan kuch oladi. Ksenofobiya tashqi ta'sir natijasidir, chunki hech kim tug'ma nafrat yoki o'z millatining ustunligi tuyg'usi bilan dunyoga kelmaydi. Ushbu barcha his-tuyg'ular va e'tiqodlar inson ongini va xulq-atvorini boshqarilishining natijasidir.

"Ksenofobiyaning tubida g'azab, nafrat va kamsitish his-tuyg'ulari trilogiyasi yotadi – ular shaxsiy va jamoaviy darajadagi xavotir va agressiya sharoitida shakllangan oddiy xulq-atvor kompleksini hosil qiladi" [5, 108-116] Ksenofobiyaning turli jihatlarini uning ta'sir doirasi, qadriyat tamoyillari va oqibatlarining axloqiy jihatlariga asoslanib, jamiyat uchun xavfi yoki xavfsizligiga ko'ra quyidagi ekspertiza natijalarini keltirib o'tish o'rinli.

Ba'zi umuminsoniy qadriyatlar – inson hayotiga hurmat, halollik va adolat, ko'pchilik fuqarolar tomonidan keng qabul qilingan va asosiy tamoyillar hisoblanadi. Ular axloqiy me'yorlar va inson xulq-atvor qoidalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Halollik, adolat, mehribonlik, bag'rikenglik va mas'uliyat – bu asosiy insoniy qadriyatlardir. Bundan tashqari, ta'lim va madaniyat yoshlarning o'z-o'zini anglashini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular

“irqlararo nafrat va ksenofobiya joy bo‘lmagan bag‘rikeng muhit yaratishga yordam berishi kerak”.

Ba’zi mamlakatlar siyosatida ksenofobiya davlatni barqarorlashtiruvchi mexanizm sifatida qo‘llanilishi mumkin. U jamiyat hayotini tartibga soluvchi “nazorat va muvozanat” tizimi sifatida qo‘llaniladi, unda “begonadan qo‘rqish” irqiy, milliy nafratga asoslangan zo‘ravonlikdan qo‘rqish bir-birini to‘ldirib turadi.

Qo‘rquv va dushmanlikni jamoaviy darajaga chiqishi imperiyalarning paydo bo‘lishi va parchalanish jarayonlari bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ksenofobiyaning paydo bo‘lishi uchun etnik, diniy guruhlar o‘rtasida aniq dushmanlik bo‘lishi shart emas, buning uchun begona kelgindilar da’vo qilayotgan muhit, mafkuraviy va siyosiy makon mavjud bo‘lishining o‘zi yetarli. Liberal paradigma milliy madaniyatlar chegaralarini yo‘q qilinishiga, madaniy an‘analarning zaiflashishiga, shuningdek, milliy va madaniy o‘zlikning buzilishi va parchalanishiga olib keladi [6,44].

Ochiq jamiyatga asoslangan liberal model o‘z mohiyatida ma’lum darajada utopik xarakterga ega bo‘lgani sababli, tez sur’atlarda modernizatsiyaga uchragan an‘anaviy jamiyatlarda shakllangan ijtimoiy munosabat va psixologik reflekslarning keyingi rivojlanishini to‘liq oldindan belgilab bera olmaydi. Bunday jamiyatlarda tarixiy tajriba, madaniy qadriyatlar va kollektiv xotira asosida shakllangan ijtimoiy xulq-atvor mexanizmlari mavjud bo‘lib, ular modernizatsiya jarayonida murakkab tarzda o‘zgaradi.

Ya’ni, liberal model nazariyasining nuqsonsiz ko‘rinishi, barcha fuqarolar ratsional qaror qabul qila olishi, jamiyat tez moslashishi, erkinlik va tenglik tabiiy, izchil ravishda qabul qilinadi. Bu g‘oyalar Karl Popper tomonidan asoslangan. Qayd etish kerak, shu bois ham mazkur model utopik harakterga ega ekani ta’kidlanadi.

Haqiqiy, real jamiyatlar esa mukammal emas, odamlar doim ratsional emas, an‘analar kuchli ta’sir qiladi.

Davlat miqyosida esa fobiyaviy kayfiyatlarning kuchayishi ko‘pincha imperiyaviy identifikatsiya inqirozi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu holat, odatda, ilgari yirik yoki imperiyaviy siyosiy tuzilma tarkibida yashagan jamiyatlarda yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatda fuqarolar o‘zlarining oldingi siyosiy va madaniy mansubligini yo‘qotayotganini his qilishi mumkin. Natijada, himoyasizlik, ijtimoiy adolatsizlikka duch kelish, e’tibordan chetda qolish yoki aldanganlik kabi hissiy holatlar paydo bo‘ladi. Ushbu omillar esa, jamiyatda nafaqat individual darajadagi, balki jamoaviy miqyosdagi xavotir va beqarorlikning ortishiga olib keladi [7, 229-230].

Ksenofobiyaning milliy tipologiyasi madaniy, til va ijtimoiy farqlarni tahdid deb qabul qilishga asoslangan holda boshqa etnik va milliy guruhlar a’zolariga qarshi yo’naltirilgan ksenofobik munosabatlar shakliga taalluqlidir. Ushbu turdagi ksenofobiya guruhlar o‘rtasida salbiy tasavvurlar, kamsitish va ijtimoiy masofa saqlash orqali namoyon bo‘lib, “o‘zimiz” va “o‘zgalar” o‘rtasida ikkiga bo‘linishni yuzaga keltiradi.

Ksenofobiyaning etnik va milliy tipologiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil etilganda, avvalo ular o‘rtasidagi farqqa to‘xtalib o‘tish lozim.

Etnos – bu umumiy etnik tarkib bilan birlashtirilgan odamlar guruhi bo‘lib, u asosan umumiy til, din, urf-odatlar va madaniyat bilan belgilanadi. Etnik guruh a’zolari odatda umumiy tarixiy xotiraga ega va o‘zlarini bir xalqning a’zolari deb bilishadi. Ular jamoaviy o‘z-o‘zini anglash va ma’lum bir jamoaga tegishli bo‘lish xususiyatiga ega.

Millat tushunchasi esa asosan siyosiy ma’noga ega. Millat – siyosiy birlashma, tashkilotni shakllantira oladigan va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va mustaqillikka intiladigan odamlar guruhi. Millat ko‘pincha ma’lum bir hudud bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z Konstitusiyasi, qonunlari va hukumatiga ega. Millat a’zolari odatda, garchi turli elatlardan iborat bo‘lsalarda, o‘zlarini muayyan yagona mamlakat fuqarolari deb bilishadi va umumiy qadriyatlar, huquqlar hamda majburiyatlarga ega hisoblanishadi.

Shubhasiz, etnik guruh va millat o‘rtasidagi farq murakkab bo‘lib, shunga qaramay, ushbu tushunchalarni anglash va hisobga olish dunyoning turli mamlakatlaridagi ijtimoiy dinamika, siyosiy jarayonlar va jamoatchilik bilan aloqalarni o‘rganish uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ksenofobiya hodisasini milliy, siyosiy kategoriyalarda tadqiq etilishi, uning tipologiyalarini aniqlash mazkur hodisa ko‘lamini kengroq anglashga yordam beradi. “Biz” “ular” dixotomiyasi siyosiy tipologiyada diskursiv, institutsionallashgan, elektoral, strukturaviy, populistik ksenofobiya kabi turlarga bo‘linib, ko‘plab hollarda jamiyat fikriga ta’sir o‘tkazish jihati bilan ajralib turadi. Milliy, etnik ksenofobiya esa, insonlarning kelib chiqishi, diniy, milliy mansubligiga ko‘ra kamsitish yoki bosim o‘tkazish vositasiga aylanishi mumkin

#### ADABIYOTLAR:

1. Shmitt K. Ponyatie politicheskogo // Voprosi sotsiologii. 1992. № 1. S. 35-67.
2. Fridman V. Natsionalizm i ksenofobiya: sotsialnie prichini i psixologicheskaya osnova yavleniya vibora [Elektronniy resurs]. URL: [http://sceptsis.net/library/id\\_1594.html](http://sceptsis.net/library/id_1594.html)
3. L. Apanasyuk. Ksenofobiya kak predmet sotsialno-kulturnogo issledovaniya. Vestnik TGU, vipusk 12 (128), 2013. S.227-228.
4. Gurina, O. D. (2017) Ksenofobiya i deviantnoe povedenie u podrostkov i molodezhi: obzor otechestvennykh issledovaniy [Xenophobia and deviant behavior in adolescents and young adults: a review of domestic studies]. Psychology and Law. 7 (3), 97–109. Available from: doi:10.17759/psylaw.2017070308. (In Russian)
5. Voronov, K. A., Kuzevanova, V. V., Charlashina, E. V. & Shilina, S. A. (2018) Ethico-Sociological Aspect of the Danger of Xenophobia. Nauchnyi zhurnal Diskurs. (5 (19)), 108–116.
6. Тилли Ч. Принуждение, капитал и европейские государства. – М.: 2009. Андерсон Б. Воображаемые сообщества. – М.: 2001. С. 44.
7. Л.Апанасюк Ксенофобия как предмет социально-культурного исследования. Вестник ТГУ, выпуск 12 (128), 2013. С. 229-230.
8. Муминов А.Г. Ўзбекистонда Миллатлараро Тотувлик Муҳитини Мустаҳкамлашнинг айрим жиҳатлари. xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmat. 2024/4/24. 207-209 бетлар

#### REZYUME:

Ushbu maqola ksenofobiya hodisasining siyosiy va etnik tipologiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ksenofobiya faqat shaxsiy qo‘rquv yoki irratsional hissiyot emas, balki muayyan ijtimoiy muhit, institutlar va mafkuraviy ta’sirlar natijasi sifatida talqin qilinishi bilan bogliq tahlillar keltirilgan.

**Kalit sozlar:** ksenofobiya, siyosiy, etnik, ijtimoiy, diniy, xavfsizlik, milliy.

#### RESUME:

This article is devoted to the political and ethnic typology of the phenomenon of xenophobia, and analyzes the interpretation of xenophobia not only as a personal fear or irrational emotion, but also as a result of certain social environments, institutions and ideological influences.

**Keywords:** xenophobia, political, ethnic, social, religious, security, national.

#### РЕЗЮМЕ:

Данная статья посвящена политико-этнической типологии феномена ксенофобии и анализирует интерпретацию ксенофобии не только как личного страха или иррациональной эмоции, но и как результата определенных социальных условий, институтов и идеологических влияний.

**Ключевые слова:** ксенофобия, политическая, этническая, социальная, религиозная, безопасность, национальная.